2.1.3-ta'rif. $w \in F^{p,p}$ differensial forma kuchsiz musbat yoki musbat deyiladi, agar ixtiyoriy kuchli musbat $n \in F^{n-p, n-p}$ forma uchun $w \wedge \eta \in F^{n,n}$ forma musbat bo'lsa.

$p = 0, 1, n-1, n$ da kuchli musbatlik kuchsiz musbatlikka ekvivalent. Biroq boshqa p lar uchun bu sinflar ustma-ust tushmaydi. Buni aniq tushunish uchun kuchli musbat formani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\begin{aligned}
w &= e_s^{l_s(z)} \prod_{j=1}^p \frac{i}{2} dl_{j_s} \prod_{j=1}^p \bar{dl}_{j_s} = \frac{i^{p^2}}{2^p} e_s^{l_s(z)} \prod_{j=1}^p \frac{i}{2} dl_{j_s} \prod_{j=1}^p \bar{dl}_{j_s} = \\
&= \frac{i^{p^2}}{2^p} e_s^{l_s(z)} \prod_{j=1}^p dl_{j_s} \prod_{j=1}^p \bar{dl}_{j_s}
\end{aligned} \quad (1.3.3)$$

Agar $q = e_s^{m_s(z)} dl_s$ formani qarasak, bunda m_s - kompleks qiymatli funksiya,

unda $\frac{i^{p^2}}{2^p} q \prod_{j=1}^p \bar{dl}_{j_s}$ ko'rinishdagi forma (kuchsiz) musbat bo'ladi, biroq

$2 \leq p \leq n-2$ da u har doim ham (1.3.3) ko'rinishga ega bo'lavermaydi.

2.1.2. Oqimlar. M ko'pxillikdagi oqimni koeffitsiyentlari umumlashgan funksiyalardan iborat differensial forma deb qarash mumkin.

Tayinlangan $G \subset \mathbb{C}^n$ soha uchun asosiy differensial formalar fazosi quyidagicha aniqlanadi:

$$F^p = F^p(G) = \left\{ w \in F^p(G) \mid C^{\Gamma}(G): \text{supp } w \subset MG \right\}$$

F^p da topologiya asosiy funksiyalar fazosidagi topologiya kabi aniqlanadi:

2.1.4-ta'rif. F^p fazodagi uzluksiz chiziqli (kompleks qiymatli) T funksional $n - p = q$ darajali oqim deyiladi. Barcha q - darajali oqimlar fazosini

B^q orqali belgilaymiz. B^q oqimlar fazosi umumlashgan funksiyalarning barcha xossalarini qanoatlantiradi. Xususan, ular uchun kuchsiz yaqinlashish, kuchsiz

chegaralanganlik tushunchalarini kiritish mumkin va $T_d \subset B^q \subset C^{\Gamma}$

o'ramani aniqlash mumkinki, $d \in \mathbb{R}$ da oqim sifatida T da yaqinlashadi,

ya'ni $T_d \circ w \in T \circ w$, $w \in B^p$. Undan tashqari T oqimni differensial forma

kabi differensiallashimiz mumkin: $dT \circ w = (-1)^p T \circ dw$

2.1.5-ta'rif. Agar $F^p = \left\{ w \in B^p(G) \mid C^{\Gamma}(G): \text{supp } w \subset MG \right\}$ fazodan

olingan T oqim (funktional) $\left\{ w \in B^p(G) \mid C^m(G): \text{supp } w \subset MG \right\}$ fazoga

uzluksiz davom qilsa, unda T oqim m dan ko'p bo'lmagan singulyarlikka ega deyiladi bunda $0 \leq m \leq \Gamma$. Agar undan tashqari T oqim

$$\left\{ w \in F^p(G) \cap C^{m-1}(G) : \text{supp } w \subset \text{MMG} \right\}$$

fazoga davom qilmasa, unda T oqim aniq m singulyarlikka ega deyiladi.

$$T = \sum_{|k|=q} b_k dx_k \text{ ko'effitsiyentlari umumlashgan funksiya bo'lgan differensial}$$

forma oqimni ifodalaydi.

2.1.1-teorema. Ixtiyoriy q - darajali oqim ko'effitsiyentlari umumlashgan funksiya bo'lgan differensial forma bo'ladi, shu bilan birga singulyarligi nolga teng bo'lgan oqim o'lchov tipidagi oqim bo'ladi va uni barcha ko'effitsiyentlari kompleks qiymatli o'lchov bo'ladi.

O'lchov tipidagi oqimlar fazosini B_0^q orqali belgilaymiz. B_0^q nafaqat $G \subset \mathbb{R}^n$ soha uchun, balki ixtiyoriy $E \subset \mathbb{R}^n$ borel to'plami uchun ham aniqlangan. Xususan, $K \subset \mathbb{R}^n$ kompakt uchun differensial forma ko'effitsiyentlaridan tashkil topgan vektorlarni $F_0^q(K) = F_0^q(K) \cap C(K)$ fazoga qo'shma fazo bo'lgani uchun u Banach fazosi bo'ladi. $T \in B_0^q$ oqim uchun o'lchov tipidagi oqim $T \circ w = m(z)W$ bo'ladi, bu yerda m - kompleks qiymatli o'lchov bo'lib, u $w \in B_0^p$ ga bog'liq va $W = dx_1 \wedge \dots \wedge dx_n$, shu bilan birga funksional qiymati $T \circ w = \int_G dm$ bo'ladi.

Xuddi o'lchovlar fazosi kabi quyidagi xossalari o'rinli:

a) $\{T_j\} \subset B_0^q$ oqimlar ketma-ketligi T ga kuchsiz yaqinlashadi, ya'ni

$$\lim_{j \rightarrow \infty} T_j \circ w = T \circ w, \quad w \in B_0^p \text{ faqat va faqat shu holda, qachon unga mos } T_j$$

dan olingan ko'effitsiyentlardan tuzilgan o'lchovlar ketma-ketligi yaqinlashuvchi bo'lsa.

b) $\{T_j\} \in MB_0^q$ oqimlar ketma-ketligi T ga kuchsiz yaqinlashadi, faqat va faqat shu holdaki, qachon T_j norma bo'yicha chegaralangan bo'lsa

$\|T_j\|_k \leq C, \quad \forall K \in MG, j = 1, 2, \dots$ va $j \rightarrow \infty$ da $T_j \rightarrow T$ limitik

munosabat hamma yerda zich biror $E \in MB_0^p(K)$ to'plamdan olingan barcha w lar uchun o'rinli bo'lsa, masalan barcha cheksiz differensiallanuvchi

$w \in F^p \cap C^r(K)$ lar uchun

d) ixtiyoriy kuchsiz chegaralangan $E \in MB_0^q(K)$ qiymatlar to'plami ham kuchsiz kompakt ya'ni uni ixtiyoriy ketma-ketligi kuchsiz yaqinlashuvchi qisman ketma-ketligi $\{T_j\} \in ME$ ni o'zida saqlaydi.

2.1.6-ta'rif. q - darajali differensial forma (oqim) yopiq deyiladi, agar uni differensialni nolga teng bo'lsa; u aniq deyiladi, agar u biror $q - 1$ darajali formani (oqimni) differensialini ifodalash. Aniq formalar (oqimlar) yopiq bo'ladi, teskari tasdiq uchun G sohaga qo'shimcha geometrik shartlarni qo'yish zarur.

Endi J^n da asosiy differensial formalar fazosini qaraymiz:

$$B^{p,p} = B^{p,p}(G) \{w \in B^{p,p}(G) \cap C^r(G) : \text{supp } w \in MG\}$$

2.1.7-ta'rif. $F^{p,p}$ fazoda uzluksiz chiziqli (kompleks qiymatli) T funksionalga $(n - p, n - p) = (q, q)$ bidarajali oqim deyiladi.

2.1.2-teorema. Musbat oqimlar o'lchov tipidagi oqimlar bo'ladi.

2.1.1-misol. Koeffitsiyentlari L^1_{loc} sinfdan olingan ixtiyoriy $T \in F^{q,q}$ differensial forma (q, q) bidarajali oqim bo'ladi.

T o'w funksional $T \circ w = \int_G T \wedge w, \quad \forall w \in F^{p,p}$ kabi aniqlanadi. Bunday

oqimlar regulyar oqim deyiladi.

2.1.2-misol. $A \in J^{n-p}$ o'lchamli analitik to'plam bo'lsin. U holda

$\int_{\Gamma} \frac{\partial w}{\partial \nu} = \int_A w$ integral (q, q) bidarajali oqimni aniqlaydi. Ko'rish qiyin

emaski, $\int_{\Gamma} \frac{\partial w}{\partial \nu}$ musbat oqim bo'ladi.

2.2. $dd^c u$ $\mathbb{H}^n$ operator va a - garmonik funksiyalar

$\mathbb{H}^n$ kompleks fazoda $(n-1, n-1)$ -bidarajali qat'iy musbat a differensial formani tayinlaymiz.

2.2.1-teorema. $dd^c u$ $\mathbb{H}^n$ elliptik operator bo'ladi.

Isbot. a differensial forma quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi deb faraz qilamiz:

$$a = \frac{(i)^{(n-1)^2}}{2^{n-1}} e^{a_{j,k}(z)} dz_1 \wedge \dots \wedge \overline{dz_n}, \quad (2.2.1)$$

Bu yerda $dz_1 \wedge \dots \wedge \overline{dz_n}$ belgilash $dz_1 \wedge \dots \wedge dz_n \wedge \overline{dz_1} \wedge \dots \wedge \overline{dz_n}$ ko'paytmada dz_j va $\overline{dz_k}$ differensiallar tushib qolishini bildiradi. .

Ma'lumki, istalgan musbat forma w haqiqiy bo'ladi, ya'ni $\overline{w} = w$ tenglik o'rinli bo'ladi. Lokal koordinatalarda agar $w = i^{p^2} e^{a_{I,J}} dz_I \wedge \overline{dz_J}$ bo'lsa, u holda $|I|=|J|=p$

koeffisientlar ermit skalyar ko'paytmani qanoatlantiradi: $\overline{a_{I,J}} = a_{J,I}$ (q. [18]).

Binobarin, (2.2.1) formada quyidagi tenglik o'rinli: $\overline{a_{j,k}(z)} = a_{k,j}(z)$.

Endi ixtiyoriy musbat $(1,1)$ - bidarajali formani olamiz:

$w = \frac{i}{2} e^{a_{j,k}} dz_j \wedge \overline{dz_k}$. Formaning musbatligiga ko'ra va

$idz_1 \wedge \overline{dz_1} \wedge \dots \wedge idz_n \wedge \overline{dz_n} = i^{n^2} dz_1 \wedge \overline{dz_1} \wedge \dots \wedge dz_n \wedge \overline{dz_n}$ o'rin almashtirish qoidasidan foydalanib biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$a \wedge w = \frac{i^{(n-1)^2}}{2^{n-1}} e^{a_{j,k}(z)} dz_1 \wedge \dots \wedge \overline{dz_n} \wedge \frac{i}{2} e^{a_{j,k}} dz_j \wedge \overline{dz_k} = ,$$

$$\begin{aligned}
&= \sum_{j,k=1}^n (-1)^{\frac{(n-1)(n-2)}{2}} \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{3n-j-k-1} a_{jk} a_{jk}(z) dz \wedge \bar{dz} = \\
&= \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{2n-j-k} a_{jk} a_{jk}(z) dV > 0, \tag{2.2.2}
\end{aligned}$$

bu yerda $dV = \sum_{j,k=1}^n dz_1 \wedge \bar{dz}_1 \wedge \dots \wedge dz_n \wedge \bar{dz}_n$ - J^n dagi hajm elementi.

$\mathbf{R}^{2n}$ fazodagi m tartibli chiziqli differensial operator $P(x, \mathcal{D})u = \sum_{|a| \leq m} a^a(x) \mathcal{D}^a u$ bilan beriladi, bu yerda $x = (x_1, \dots, x_{2n}) \in \mathbf{R}^{2n}$,

$a = (a_1, \dots, a_{2n})$ - multiindeks, $|a| = a_1 + \dots + a_{2n}$, $\mathcal{D}^a = \mathcal{D}_1^{a_1} \mathcal{D}_2^{a_2} \dots \mathcal{D}_{2n}^{a_{2n}}$,

$\mathcal{D}_j = \frac{\partial}{\partial x_j}$, $j = \overline{1, 2n}$.

Istalgan $u(z) \in C^2(D)$ uchun $dd^c u \wedge \omega$ operator quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi:

$$dd^c u \wedge \omega = P(z, \mathcal{D})u(z),$$

$$\text{bu yerda } dd^c u \wedge \omega = \frac{i}{2} \sum_{j,k} \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz_j \wedge \bar{dz}_k \wedge \sum_{j,k} \frac{(n-1)^2}{2^{n-1}} \mathbf{e}_{j,k} a_{jk}(z) dz \wedge \bar{dz} =$$

$$= \sum_{j,k=1}^n (-1)^{\frac{(n-1)(n-2)}{2}} \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{n+k+j-3} a_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz \wedge \bar{dz} =$$

$$= \sum_{j,k=1}^n (-1)^{\frac{n(n-1)}{2}} \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz \wedge \bar{dz} = \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dV$$

$$= \frac{1}{4} \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) \left(\frac{\partial^2}{\partial x_j^2} - i \frac{\partial^2}{\partial y_j \partial x_k} + i \frac{\partial^2}{\partial y_k \partial x_j} \right) u(z) dV =$$

$$= \frac{1}{4} \mathbf{e}_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) (\mathcal{D}_j - i \mathcal{D}_{n+j})(\mathcal{D}_k + i \mathcal{D}_{n+k}) u(z) dV.$$

Bu yerda $z_k = x_k + ix_{n+k}$, $k = 1, \dots, n$ deb o'zgaruvchilarni almashtirdik.

Endi $dd^c u$ operatorning xarakteristik formasini tuzamiz. U quyidagi ko'rinishga ega bo'lib, $x \in \mathbb{R}^{2n}$ ning ikkinchi darajasi bo'yicha bir jinsli ko'phadni ifodalaydi:

$$P(z, x) = \sum_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) (x_j - ix_{n+j})(x_k + ix_{n+k}).$$

Bu yerda $\overline{a_{jk}(z)} = a_{kj}(z)$ shartga ko'ra $\overline{P(z, x)} = P(z, x)$ tenglikni olamiz. .

Binobarin, $P(z, x)$ ko'phad haqiqiy va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P(z, x) = \sum_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) x_j x_k + \sum_{j,k} (-1)^{k+j-2} a_{jk}(z) x_{n+j} x_{n+k}$$

Agar biz $w_1 = \sum_{j,k} x_j x_k dz_j \wedge d\bar{z}_k$ va $w_2 = \sum_{j,k} x_{n+j} x_{n+k} dz_j \wedge d\bar{z}_k$ formalarni

qarasak, bu formalar bosh musbat formalarni aniqlashini ko'ramiz. Bu yerdan (2.2.2) munosabatga asosan $P(z, x) > 0$ tengsizlikka ega bo'lamiz. Bundan $P(z, x) = 0$ tenglik faqat va faqat $0 = x \in \mathbb{R}^{2n}$ da bajarilishi kelib chiqadi. Bu $dd^c u$ operatorning elliptikligini ko'rsatadi (q. [14]).

2.2.1-ta'rif. $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada $dd^c u = 0$ tenglamani qanoatlantiruvchi

ikki marta silliq $u(z) \in C^2(D)$ funksiyaga a - garmonik funksiya deyiladi.

Endi quyidagi xususiy hol uchun a - garmonik funksiyalar sinfini o'rganamiz. $(a_1, a_2, \dots, a_n) \in \check{Y}_+^n$ vektor uchun,

$$j(z) = a_1 z_1 \bar{z}_1 + a_2 z_2 \bar{z}_2 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n$$

funksiyani olamiz va ushbu formani qaraymiz:

$$dd^c j = \frac{i}{2} \bar{\partial} \partial j = \frac{i}{2} \sum_{j=1}^n \sum_{k=1}^n \frac{\partial^2 j}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz_j \wedge d\bar{z}_k =$$

$$= \frac{i}{2} (a_1 dz_1 \wedge d\bar{z}_1 + a_2 dz_2 \wedge d\bar{z}_2 + \dots + a_n dz_n \wedge d\bar{z}_n).$$

$a = (dd^c j)^{n-1}$ deb olsak, u $(n-1, n-1)$ bidarajali qat'iy musbat differensial formani beradi. $D(D \wedge j^n)$ sohada berilgan $u \in OC^2$ funksiya uchun quyidagi operatorni qaraymiz:

$$dd^c u \wedge a = dd^c u \wedge (dd^c j)^{n-1}.$$

$$(dd^c j)^{n-1} = (n-1)! \prod_{j=1}^n a_1 a_2 \dots a_n \prod_{j=1}^n dz_j \wedge d\bar{z}_j \wedge \dots \wedge dz_n \wedge d\bar{z}_n$$

Bu yerda ... belgi shu ko'paytmada j -had qatnashmasligini bildiradi.

$$(dd^c u) = \prod_{j,k=1}^n \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz_j \wedge d\bar{z}_k \text{ tengliklardan}$$

$$dd^c u \wedge a = (n-1)! \prod_j a_1 a_2 \dots a_n \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_j} dV$$

ifodaga ega bo'lamiz.

Oxirgi tenglikdan ko'rinadiki u funksiya uchun $dd^c u \wedge a = 0$ tenglikni bajarilishi

$$\prod_j a_1 a_2 \dots a_n \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_j} = 0 \quad (2.2.3)$$

tenglikni bajarilishi bilan ekvivalent ekan.

2.2.2-ta'rif. (2.2.3) tenglikni qanoatlantiruvchi $u \in OC^2(D)$ funksiya a - garmonik funksiya deyiladi.

a - garmonik funksiya sinfi $a \in h(D)$ kabi belgilanadi. $a = dd^c |z|^2$ bo'lgan holda bu o'zimizga ma'lum garmonik funksiya sinfiga ega bo'lamiz. a - garmonik funksiylarning ko'pchilik xossalari garmonik funksiylarning

xossalari kabi bo'lib, biz ularni keltirib o'tirmaymiz.

Ushbu teorema a - garmonik funksiyalarning geometrik xususiyatini ifodalaydi:

2.2.2-teorema. Agar $u(z)$ funksiya D sohada a - garmonik bo'lsa, u holda

z^0 OD nuqta va

$$E(z^0, r) = \left\{ z \in J^n : |z_1 - z_1^0|^2 + \dots + |z_n - z_n^0|^2 \leq r^2 \right\} \text{ MMD gipershar uchun}$$

$$u(z^0) = \frac{1}{V(r)} \int_{E(z^0, r)} u(t) dV(t)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $V(r)$ - gipershar hajmi va $dV(t)$ - hajm elementi.

Isbot: Umumiylikni buzmagani holda $z^0 = (0, 0, \dots, 0)$ OD bo'lsin deb olishimiz mumkin. Teoremaning isboti quyidagi sodda tasdiqdan kelib chiqadi: Agar u $Oa - h(D)$ bo'lsa, u holda

$$v(z_1, \dots, z_n) = u \left(\sqrt{a_2 \dots a_n} z_1, \dots, \sqrt{a_1 \dots a_n} z_j, \dots, \sqrt{a_1 \dots a_{n-1}} z_n \right)$$

funksiyaning D sohaning yuqoridagi chiziqli akslantirish natijasida hosil bo'lgan obrazi D^* da garmonik bo'ladi. Demak, v garmonik funksiya uchun o'rta qiymat haqidagi teorema asosan ixtiyoriy

$$B(0, r) = \left\{ z \in J^n : |z_1|^2 + \dots + |z_n|^2 \leq r^2 \right\} \text{ MMD}^* \text{ shar uchun}$$

$$v(0) = \frac{1}{V(r)} \int_{B(0, r)} v(x) dV(x)$$

Ushbu integralda o'zgaruvchini quyidagicha almashtiramiz:

$$\sqrt{a_1 \dots a_n} x_j = t_j \text{ yoki } dx_j = (\sqrt{a_1 \dots a_n})^{-1} dt_j, \quad j = 1, 2, \dots, n.$$

va $a_1 |t_1|^2 + \dots + a_n |t_n|^2 = r^2$ tenglikda $r^2 = r^2 a_1 \dots a_n$ deb belgilab

olamiz va bundan $r = \frac{r}{\sqrt{a_1 \dots a_n}}$ kelib chiqadi. Ellipsoidning hajmi uchun

$$\int_{E(0,r)} dV(t) = \int_{B(0,r)} (a_1 \dots a_n)^{n-1} dV(x) = (a_1 \dots a_n)^{n-1} V(r)$$

munosabat o'rinli bo'lishidan, quyidagi tenglik kelib chiqadi

$$\begin{aligned} u(0) &= \frac{1}{V(r)(a_1 \dots a_n)^{n-1}} \int_{a_1 |t_1|^2 + \dots + a_n |t_n|^2 \leq r^2} u(t_1, \dots, t_n) dV(t) = \\ &= \frac{1}{\int_{E(0,r)} dV(t)} \int_{a_1 |t_1|^2 + \dots + a_n |t_n|^2 \leq r^2} u(t_1, \dots, t_n) dV(t). \end{aligned} \quad (2.2.4)$$

Shunday qilib, (2.2.4) integral ellipsoid bilan chegaralangan soha bo'yicha o'rta qiymatni bildiradi. Teorema isbot bo'ldi.

Shuningdek quyidagi teoremani o'rinli ekanligini ko'rish mumkin.

2.2.3-teorema. Agar $u(z)$ funksiya D sohada a - garmonik bo'lsa, u holda z^0 OD nuqta va

$$E(z^0, r) = \left\{ z \in \mathbb{C}^n : a_1 |z_1 - z_1^0|^2 + \dots + a_n |z_n - z_n^0|^2 = r^2 \right\}$$

uchun

$$u(z^0) = \frac{1}{s_n r^{2n-1}} \int_{\partial E(z^0, r)} u(x) ds(x)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $ds(x)$ - sirt elementi va s_n - birlik gipersharning sirt yuzasi.

III-BOB. a - subgarmonik funksiyalar

3.1. a - subgarmonik funksiyalar va ularning sodda xossalari

$D \subset \mathbb{C}^n$ sohada qat'iy musbat $(n-1, n-1)$ bidarajali differensial formani va $dd^c u \wedge \alpha$ operatorni qaraymiz. Bu operator elliptik operator bo'lishini yuqorida ko'rib o'tdik.

a - qat'iy musbat, yopiq, cheksiz silliq koeffisientli bo'lgan holda biz quyidagi a - subgarmonik funksiya ta'riflarini beramiz.

3.1.1-ta'rif. $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada berilgan $u(z) \in L^1_{loc}(D)$ funksiya uchun quyidagi shartlar

$$1) u \text{ yuqoridan yarim uzluksiz, ya'ni } \overline{\lim_{z \rightarrow z^0}} u(z) = \lim_{e \rightarrow 0} \sup_{B(z^0, e)} u(z) \leq u(z^0);$$

2) umumlashgan funksiya (oqim) ma'nosida

$$\int_D dd^c u \wedge \alpha_{n-1}(w) = \int_D u \wedge dd^c w, \quad w \in F(D), \quad (3.1.1)$$

musbat, ya'ni $\int_D dd^c u \wedge \alpha_{n-1}(w) \geq 0$, $w \geq 0$ bajarilsa, bu yerda $F(D)$ - asosiy finit funksiyalar fazosi, u ga a - subgarmonik funksiya deyiladi.

Bu yerda agar $a = \frac{1}{2} dd^c |z|^2$ bo'lsa, biz mos ravishda potentsiallar nazariyasidagi yaxshi tadqiq qilingan subgarmonik funksiya ta'rifiga ega bo'lamiz.

a - subgarmonik funksiyalar sinfini a - $sh(D)$ orqali belgilaymiz. (3.1.1) dan $u \in a - sh(D)$ uchun $dd^c u \wedge \alpha$ oqim (umumlashgan funksiya) musbat va shuning uchun u musbat borel o'lchovini ifodalashi kelib chiqadi: $dd^c u \wedge \alpha = m$. m o'lchov $u(z)$ funksiyaning assosirlangan o'lchovi deyiladi.

Endi xususiylashtirilgan holda a - subgarmonik funksiyalar sinfi xossalarni

o'rganamiz.

$$a = (a_1, a_2, \dots, a_n) \in \mathbb{C}^n \text{ vektor, } j(z) = a_1 z_1 \bar{z}_1 + a_2 z_2 \bar{z}_2 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n$$

funksiya va $D(D \text{ MJ}^n)$ sohada berilgan $u \in C^2$ funksiya uchun quyidagi operatorni qaraymiz:

$$dd^c u \wedge \omega = dd^c u \wedge (dd^c j)^{n-1} = (n-1)! e^{-j} a_1 a_2 \dots a_n \frac{\omega^2 u}{\omega_{z_j} \omega_{\bar{z}_j}} dV.$$

ifodaga ega bo'lamiz. Bu yerda $\dots$ belgi shu ko'paytmada j -had qatnashmasligini bildiradi.

3.1.2-ta'rif. $D \text{ MJ}^n$ soha berilgan bo'lsin. Ushbu

$$e^{-j} a_1 a_2 \dots a_n \frac{\omega^2 u}{\omega_{z_j} \omega_{\bar{z}_j}} \geq 0$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi $u \in C^2(D)$ funksiyaga a - subgarmonik funksiya deyiladi.

a - subgarmonik funksiya quyidagi xossalarga ega.

a) a - subgarmonik funksiyaning musbat koeffitsientli chiziqli kombinatsiyasi yana a -subgarmonik funksiya bo'ladi ya'ni

$$u_k(z) \in a - sh(D), b_k \in \mathbb{R}_+ \Rightarrow b_1 u_1(z) + b_2 u_2(z) + \dots + b_m u_m(z) \in a - sh(D)$$

$$k = \overline{1, m}$$

Bu yerda ham subgarmonik funksiyaning xossasi kabi xossa o'rinli.

3.1.1-teorema. Agar $u(z)$ funksiya D sohada a - subgarmonik bo'lsa, u

holda $z^0 \in D$ nuqta va

$$E(z^0, r) = \left\{ z \in \mathbb{C}^n : a_1 |z_1 - z_1^0|^2 + \dots + a_n |z_n - z_n^0|^2 \leq r^2 \right\} \text{ MMD gipershar uchun}$$

$$u(z^0) \leq \frac{1}{V(r)} \int_{E(z^0, r)} u(t) dV(t)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $V(r)$ - gipershar hajmi va $dV(t)$ - hajm elementi.

Bu o'rta qiymat haqidagi teorema yordamida a - subgarmonik funksiyalarning quyidagi xossalari kelib chiqadi.

b) Chekli sondagi a - subgarmonik funksiyaning maksimumi ham a - subgarmonik funksiya bo'ladi ya'ni

$u_1(z), u_2(z), \dots, u_m(z)$ O a - $sh(D)$ IO $\max\{u_1(z), u_2(z), \dots, u_m(z)\}$ O a - $sh(D)$.

c) Monoton kamayuvchi a - subgarmonik funksiyalar ketma-ketligining limiti a - subgarmonik funksiya bo'ladi ya'ni

$u_j(z)$ O a - $sh(D)$, $u_j(z)$ i $u_{j+1}(z)$ IO $\lim_{j \rightarrow \infty} u_j(z)$ O a - $sh(D)$, $j = 1, 2, \dots, n$.

d) Tekis yaqinlashuvchi a -subgarmonik funksiyalar ketma-ketligi yana a - subgarmonik funksiya ga yaqinlashadi ya'ni

$u_j(z)$ O a - $sh(D)$, $u_j(z) \xrightarrow{\mathbb{R}} u(z)$ IO $u(z)$ O a - $sh(D)$, ($k = 1, 2, 3, \dots$)

e) *Maksimum prinsipi*. Agar $u(z)$ O a - $sh(D)$ funksiya biror z^0 O D nuqtada o'zining maksimumiga erishsa, ya'ni

$$u(z^0) = \sup_{x \in D} u(x)$$

bo'lsa, u holda $u(z) = \text{const}$ bo'ladi..

f) a - subgarmonik funksiyalar fazosida metrika quyidagi ko'rinishga yega:

$$r(z, w) = \sqrt{\sum_{i=1}^n a_i |z_i - w_i|^2}$$

$D \subset \mathbb{C}^n$ sohada aniqlangan

$$u : D \rightarrow [-\infty, \infty)$$

funksiya berilgan bo'lsin.

3.1.3-ta'rif. Quyidagi ikkita shart o'rinli bo'lsa:

1) $u(z)$ yuqoridan yarim uzluksiz, ya'ni

" $z^0 \in D$ uchun $\lim_{z \rightarrow z^0} u(z) = u(z^0)$ "

2) har bir $z^0 \in D$ nuqta uchun shunday $r(z^0) > 0$ topiladiki, $r \in (r(z^0), r(z^0) + \delta)$ uchun

$$u(z^0) \leq \frac{1}{V(r)} \int_{B(z^0, r)} u(t) dV(t) + \frac{1}{r^2} \int_{\partial B(z^0, r)} u(t) dS(t)$$

shartni qanoatlantirsa, u holda $u(z)$ funksiya D sohada a - subgarmonik funksiya deyiladi.

a - subgarmonik funksiya va subgarmonik funksiyalarni farqli jihatlarini ko'rsatuvchi misollarni ko'rib o'tamiz.

3.1.1-misol: $\mathbb{C}^3$ fazoda bizga $a = (3, 1, 2) \in \mathbb{C}_+^3$ vektor berilgan bo'lsin.

$u = -5|z_1|^2 + 6|z_2|^2 - 2|z_3|^2$ bu funksiya subgarmonik funksiya emas, lekin a - subgarmonik funksiya bo'ladi.

Haqiqatan ham,

$$\Delta u = 4 \frac{\partial^2 u}{\partial z_1 \partial \bar{z}_1} + 4 \frac{\partial^2 u}{\partial z_2 \partial \bar{z}_2} + 4 \frac{\partial^2 u}{\partial z_3 \partial \bar{z}_3} = 4(-5 + 6 - 2) = -4 < 0$$

bundan ko'rinib turibdiki u funksiya subgarmonik funksiya emas ekan, lekin quyidagiga asosan

$$\Delta_a u = 2 \frac{\partial^2 u}{\partial z_1 \partial \bar{z}_1} + 6 \frac{\partial^2 u}{\partial z_2 \partial \bar{z}_2} + 3 \frac{\partial^2 u}{\partial z_3 \partial \bar{z}_3} = 4(-10 + 36 - 6) = 80 > 0$$

ya'ni u a - subgarmonik funksiya ekan.

3.2. a - subgarmonik funksiyalarning Riss tasviri

Elliptik operatorlar nazariyasidan yaxshi ma'lumki, $dd^c u$ operator ikkinchi tartibli elliptik operator bo'lgani uchun $\mathbb{C}^n$ fazoda tayinlangan $w \in \mathbb{C}^n$ nuqtaga nisbatan $K_a(z, w)$ fundamental yechim mavjud: $dd^c K_a = d(z - w)$, bu yerda $d(z - w)$ - $w \in \mathbb{C}^n$ nuqtadagi Dirak o'lchovi va shu bilan birga $K_a(z, w)$ $\mathbb{C}^n$ da $z = w$ dan tashqarida cheksiz silliq funksiyani ifodalaydi va shu bilan birga $z = w$ nuqta atrofida quyidagi baholash

o‘rinli: (q. [1], [13])

$$\left| D^b K_a(z, w) \right| \leq \begin{cases} \text{const} |z - w|^{-2n - |b| + 2}, & 2n + |b| > 2 \\ \ln |z - w|, & n = 1, b = 0 \end{cases} \quad (3.2.1)$$

$K_a(z)$ fundamental yechim $dd^c u$ operator subyechimining Riss tasviri yadrosi bo‘lib xizmat qiladi.

3.2.1-teorema. Agar $u \in O_a - sh(D)$ bo‘lsa, u holda istalgan $G \subset M(D)$ kompakt qism sohada quyidagi tasvir o‘rinli:

$$u(z) = \int_G K_a(z - w) dm_w + F(z), \quad z \in G, \quad (3.2.2)$$

bu yerda $F(z)$ - G sohadagi biror a - garmonik funksiya.

Isbot. Bu teoremani isbotlash uchun quyidagi ayirmani qaraymiz:

$$F(z) = u(z) - \int_G K_a(z - w) dm_w.$$

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, agar $u \in O_a - sh(D)$ bo‘lsa, u holda Riss-Markov teoremasiga (q. [6]) ko‘ra unga m assosiirlangan o‘lchov mos keladi:

$$dd^c u = m. \quad \text{Endi} \quad u_m(z) = \int_G K_a(z - w) dm_w \quad \text{deb belgilaymiz va}$$

$dd^c u_m = m$ ekanini ko‘rsatamiz. Haqiqatan ham, $K_a(z)$ fundamental yechim

uchun tayinlangan $w \in J^n$ nuqtaga nisbatan $dd^c K_a(z - w) = d(z - w)$

tenglikka ega bo‘lamiz. Istalgan $w \in F^{(0,0)}(D)$, $w \neq 0$ uchun a formaning yopiqligidan foydalanib,

$$\begin{aligned} \int_G dd^c u_m = \int_G dd^c \left(\int_G K_a(z - w) dm_w \right) &= \int_G \int_G dd^c K_a(z - w) dm_w = \int_G \int_G d(z - w) dm_w = \int_G d(z - w) dm_w = m \end{aligned}$$

tenglikni olamiz. Shuning uchun G sohada

$$dd^c F(z) \llcorner a = dd^c u(z) \llcorner a - dd^c u_m(z) \llcorner a = m - m = 0.$$

tenglikka egamiz. Binobarin $F(z)$ funksiya G sohada a - garmonik funksiyani ifodalaydi.

Endi bu tasvirning yagona ekanini ko'rsatamiz. Haqiqatan G sohada $u(z) = u_n(z) + F_G(z)$ tenglik o'rinli bo'lsin, bu yerda n - G sohadagi biror chekli o'lchov, $F_G(z) \in O(a - h(G))$, u holda

$$dd^c u \llcorner a = dd^c u_n \llcorner a + dd^c F_G(z) \llcorner a = n,$$

ya'ni $n(G) = m(G)$ ni olamiz. Bu yerdan $F(z) = F_G(z)$ ekani kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

Endi 3.1 da kiritilgan hususiy hol uchun a - subgarmonik funksiyalar sinfida yuqoridagi masalani qarab chiqamiz.

$a = (a_1, a_2, \dots, a_n) \in \check{Y}_+^n$ vektor uchun,

$$j(z) = a_1 z_1 \bar{z}_1 + a_2 z_2 \bar{z}_2 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n$$

funksiyani olamiz va $a = (dd^c j)^{n-1}$ bo'lgan holda quyidagi operatorni qaraymiz:

$$dd^c u \llcorner a = (n-1)! \sum_j a_1 a_2 \dots a_n \frac{\|u\|_{z_j}^2}{\|z_j\|_{\bar{z}_j}} dV,$$

bu yerda $\sum_j$ belgi shu ko'paytmada j -had qatnashmasligini bildiradi,

$$dV = \prod_{j=1}^n dz_j \wedge \bar{z}_j \wedge \dots \wedge dz_n \wedge \bar{z}_n \in \check{Y}^{2n}$$
 dagi hajm formasi.

Bu operator ham elliptik operator bo'lib, quyidagi teorema uning fundamental yechimi ko'rinishini aniq tasvirlash imkonini beradi.

3.2.2-teorema. Berilgan $(a_1, a_2, \dots, a_n) \in \check{Y}_+^n$, $n \geq 2$ vektor uchun ushbu

$$K(z) = \frac{1}{(n-1) \wp(a_1 z_1 \bar{z}_1 + a_2 z_2 \bar{z}_2 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n-1}} \quad (3.2.3)$$

funksiya quyidagi

$$dd^c u \equiv 0 \quad (3.2.4)$$

elliptik tenglamaning fundamental yechimi bo'ladi.

Isbot: Bu yadrodan xususiy hosilalarni olamiz:

$$\frac{\wp K(z)}{\wp z_1} = \frac{1}{(n-1)} \wp \frac{a_1 \bar{z}_1 (n-1)}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} = \frac{a_1 \bar{z}_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n},$$

$$\frac{\wp K(z)}{\wp z_2} = \frac{1}{(n-1)} \wp \frac{a_2 \bar{z}_2 (n-1)}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} = \frac{a_2 \bar{z}_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n},$$

... ..

$$\frac{\wp K(z)}{\wp z_n} = \frac{1}{(n-1)} \wp \frac{a_n \bar{z}_n (n-1)}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} = \frac{a_n \bar{z}_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n}$$

endi bu xususiy hosiladan $\bar{z}_j$, ($j = 1, \dots, n$) bo'yicha hosila olamiz:

$$\frac{\wp^2 K(z)}{\wp z_1 \wp \bar{z}_1} = \frac{a_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_1^2 z_1 \bar{z}_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}},$$

$$\frac{\wp^2 K(z)}{\wp z_2 \wp \bar{z}_2} = \frac{a_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_2^2 z_2 \bar{z}_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}},$$

... ..

$$\frac{\wp^2 K(z)}{\wp z_n \wp \bar{z}_n} = \frac{a_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_n^2 z_n \bar{z}_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}}$$

Topilgan bu qiymatlarni (3.2.4) tenglikga qo'yamiz:

$$\begin{aligned}
& \sum_{j=1}^n a_1 a_2 \dots a_n \frac{\mathbb{U}^2 u}{\mathbb{U} z_j \mathbb{U} \bar{z}_j} = a_2 a_3 \dots a_n \frac{\mathbb{U}^2 u}{\mathbb{U} z_1 \mathbb{U} \bar{z}_1} + \dots + a_1 a_3 \dots a_{n-1} \frac{\mathbb{U}^2 u}{\mathbb{U} z_n \mathbb{U} \bar{z}_n} = \\
& = a_2 a_3 \dots a_n \frac{a_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_1^2 z_1 \bar{z}_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} + \\
& + a_1 a_3 \dots a_n \frac{a_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_2^2 z_2 \bar{z}_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} + \dots + \\
& + a_1 a_2 \dots a_{n-1} \frac{a_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_n^2 z_n \bar{z}_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} = \\
& = \frac{a_1 a_2 a_3 \dots a_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_1^2 a_2 a_3 \dots a_n z_1 \bar{z}_1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} + \\
& + \frac{a_1 a_2^2 a_3 \dots a_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_1 a_2^2 a_3 \dots a_n z_2 \bar{z}_2}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} + \dots + \\
& + \frac{a_1 a_2 a_3 \dots a_{n-1} a_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{n a_1 a_2 \dots a_{n-1} a_n^2 z_n \bar{z}_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} = \\
& = n a_1 a_2 \dots a_{n-1} a_n \frac{1}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^n} - \frac{a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n}{(a_1 z_1 \bar{z}_1 + \dots + a_n z_n \bar{z}_n)^{n+1}} = 0
\end{aligned}$$

bundan esa (3.2.3) ning (3.2.4) ni fundamental yechimi ekanligi kelib chiqadi.

Xulosa

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida subgarmonik funksiyalarning kengaytmasi bo'lgan a - subgarmonik funksiyalar sinfining ba'zi xossalari o'rganilgan. a - qat'iy musbat $(n - 1, n - 1)$ bidarajali differensial forma bo'lgan holda $dd^c u$ operatorning elliptikligi isbotlanib, bu operatorning subyechimi sifatida a - subgarmonik funksiyaning Riss tasviri o'rganildi. Xususiyl holda a - subgarmonik funksiyalarning o'rta qiymat haqidagi xossasi isbotlandi va Riss yadrosining aniq tasviri topildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алимов Ш.А. Дробные степени эллиптических операторов и изоморфизм классов дифференцируемых функций// Дифференц. уравнения. 1972. Т.8. с. 1609-1626.
2. Владимиров В.С. Методы теории функций многих комплексных переменных. – М.: Наука, 1964. – 411 с.
3. Ландкоф Н.С. Основы современной теории потенциала. – М.: Наука, 1966.–515с.
4. Миранда К. Уравнения с частными производными эллиптического типа. – М.: ИЛ, 1957.– 256 с.
5. Ронкин Л. И. Введение в теорию целых функций многих переменных. – М.: Наука, 1971. – 432 с.
6. Садуллаев А. Теория плюрипотенциала. Применения. Palmarium Academic Publishing, Германия, 2012. -308 с.
7. Садуллаев А.С. Голоморфные функции многих переменных. – Ургенч: 2005. – 168 с.
8. Садуллаев А., Мадрахимов Р. Гладкость субгармонических функций. Матем.сб., том 181, №2, 1990, ст. 167-182.
9. Садуллаев А.С., Плюрисубгармонические функции// Итоги науки и техники. Современные проблемы математики. Фундаментальные направления. – М.: ВИНТИ, 1985.- Т. 8. - с. 65 – 111.
10. Тиман А.Ф., Трофимов В.Н. Введение в теорию гармонических функций. – М.: Наука, 1968. – 208 с.
11. Уэрмер Дж. Теория потенциала. М.,МИР, 1980.
12. Хейман У., Кеннеди П. Субгармонические функции. – М.: Мир, 1980. –304 с.
13. Хёрмандер Л. О средних Рисса спектральных функций эллиптических дифференциальных операторов и соответствующих

- спектральных разложениях// Математика(Сб. переводов). 1968. Т.12. №5. С.91-130.
14. Хермандер Л. Линейные дифференциальные операторы с частными производными. – М.: Мир, 1965. –380с.
 15. Чирка Е.М. Комплексные аналитические множества. – М.: Наука, 1985
 16. Шабат Б.В. Введение в комплексный анализ. В 2-х ч. – М.: Наука, 1985. Часть 2.– 464 с.
 17. Abdullayev B.I. Subharmonic functions on complex Hyperplanes of J^n // Journal of Siberian Federal University, Mathematics and Physics, - Krasnoyarsk, 2013 №6(4), pp.409-416.
 18. Demailly J.P. Complex Analytic and differential geometry. Universite de Grenoble I Institut Fourier, UMR 5582, France,1997. -518 p.
 19. Harvey F. R. and Lawson H. B. Jr., An introduction to potential theory in calibrated geometry // Amer. J. Math. 131, 4.2009, pp.893-944.
 20. Harvey F. R. and Lawson H. B. Jr., Duality of positive currents and plurisubharmonic functions in calibrated geometry // Amer. J. Math. 131 no. 5, 2009, pp.1211-1240.
 21. Ваисова М. Теория плюрипотенциала a - субгармонических функций// УзМЖ – Ташкент, 2016 г., №3, с.46-52.
 22. Атамуратов А., Ваисова М., Обиджанов И. a - субгармоник функцияларнинг баъзи муҳим хоссалари// Илм сарчашмалари.-Урганч, 2016,-№6. –3-8 б
 23. Атамуратов А., Ваисова М., Обиджанов И. a - субгармоник функцияларнинг Рисс тасвири// Илм сарчашмалари.-Урганч, 2017,- №2. – - б

Internet manbalari:

1. <http://www.mathnet.ru> (Rossiya matematika sayti)

2. <http://www.arxiv.org> (yangi maqolalar sayti)
3. <http://www.eknigu.com/lib/mathematics/>
http://www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC
4. <http://www.rsl.ru/> - Российская государственная библиотека;
5. <http://www.msu.ru/> - Московский государственный университет;
6. <http://www.nlr.ru/> - Российская национальная библиотека;